

MUSTAQILLIK ARAFASIDA O‘ZBEKISTONDAGI IJTIMOIIY -SIYOSIY JARAYONLAR.

Rafiqova Mushtariybonu Qosimjon qizi

Qo‘qon Universiteti FTI.2.25 . Filalogiya ingiliz tili

Annatatsiya: *Ushbu maqolada O‘zbekiston mustaqilligi arafasida kechgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar tarixiy-tahliliy yondashuv asosida yoritiladi. Tadqiqotda sobiq ittifoq davrining so‘nggi yillarida yuzaga kelgan siyosiy islohotlar, iqtisodiy qiyinchiliklar, ijtimoiy faollikning ortishi hamda milliy o‘zlikni anglash jarayonining kuchayishi omillari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, suverenitet g‘oyasining shakllanishi, davlat boshqaruvi tizimidagi o‘zgarishlar va jamoatchilik kayfiyatidagi transformsiyalar ilmiy manbalar asosida tahlil etiladi. Maqola natijalari mustaqillik arafasidagi murakkab ijtimoiy-siyosiy muhitni tizimli tushunishga xizmat qiladi.*

Tayanch so‘zlar: *Sovet davri, xom ashyo siyosati, paxta yakkahokimligi, Orol fojeasi, ekologik inqiroz, turg‘unlik yillari, “paxta ishi”, “o‘zbeklar ishi”, qatag‘on siyosati, inson huquqlarining buzilishi, milliy qadriyatlar, davlat tili to‘g‘risidagi qonun, prezidentlik instituti, Mustaqillik deklaratsiyasi, referendum, davlat mustaqilligi, tomorqa xo‘jaligi, agrar islohotlar, siyosiy transformatsiya.*

Sovet davrida O‘zbekiston xom ashyo etkazib beruvchi hududligicha qolib ketdi. Ishlab chiqarishga e‘tibor qaratilmadi. Paxta yakkahokimligi o‘rnatildi. Sobiq sovet davlatining markaziga xom ashyoni ko‘proq etkazib berish maqsadida cho‘l zonalariga ham paxta ekila boshlandi. Bu esa Markaziy Osiyoda ekologik muammolarni, birinchi navbatda Orol fojeasini keltirib chiqardi. O‘zbek xalqi ham sovet davlatida yashovchi boshqa xalqlar qatorida iskanjada ushlanib, dunyo miqyosida ro‘y berayotgan taraqqiyot va integratsiyadan uzib qo‘yildi. O‘zbek xalqining tarixi, buyuk ajdodlari hayotining xolisona o‘rganilishiga ataylab to‘siqlar o‘rnatildi. Bu borada maxsus qarorlar qabul qilindi. Islom dini va milliy bayramlarning yo‘q qilinishi ma‘naviy bo‘shliq kelib chiqishiga zamin yaratdi.

Turg‘unlik yillaridagi qatag‘onlik. “O‘zbeklar ishi”, ”Paxta ishi” deb nom olgan jarayonlar”

✓ Turg‘unlik yillarida O‘zbekistonda xalqni chalg‘itish maqsadida “paxta ishi”, “o‘zbeklar ishi” degan bahonalar o‘ylab topildi. Natijada, 80 -yillarning o‘rtalaridan O‘zbekistonda qonunsizlik, yashirin qatag‘onlik harakatlari kuchaydi;

✓ Sobiq SSSR prokuraturasi, Xavfsizlik komiteti tashabbusi bilan bir necha tergov guruhlar tuzildi;

✓ 1983-1989 yillarda T. Gdlyan va Ivanovlar rahbarligida tuzilgan tergov guruhlar respublika huquqni muhofaza qilish organlari bilan hamkorlikda O‘zbekistonda paxta etishtirishda qo‘shib yozish bilan bog‘liq 800 dan oshiq tergov ishlari olib bordilar;

✓ SHu ishlar bo‘yicha 5 ming kishi qamoqa olindi, ularning 600 dan oshig‘i rahbar xodimlar, 10 tasi sotsialistik mehnat qahramonlari edilar. “Aybdorlar” dan 100 mln. so‘mdan oshiq pul yig‘ib olindi;

✓ Qamoqa olinganlarning ko‘pchiligi qonunga xilof ravishda sudsiz, belgilanganidan oshiq muddatlarda qamoqxonalarda ushlab turildi;

✓ Bu o‘zbek xalqining mavjud tuzumga nisbatan ishonchsizligini, rahbar xodimlar va huquq-tartibot organlariga nisbatan noroziligini kuchaytirdi;

✓ O‘zbekistonda qo‘pol tarzda inson huquqlari poymol etildi.

Xususiy mulk, asriy an‘analar yo‘q qilindi. Davlat hukmronligi o‘rnatildi, mamlakatda partiya yakka hokimligini o‘rnatildi. Sovet tuzumiga qarshi bo‘lgan xalqning ilg‘or qatlamlarini davlat boshqaruviga yaqinlashtirmaslik siyosati olib borildi. Bol’sheviklarga xalaqit bermasligi uchun ziyolilar tag-tomiri bilan yo‘qotildi. Har qanday yo‘l bilan sovet davlatining kuch qudratini saqlab turish asosiy maqsad edi. Ilg‘or g‘oyalar yo‘qotildi. Ko‘zga ko‘ringan olimlar, shoir va davlat arboblari shafqatsiz yo‘q qilingan. Milliy g‘urur va o‘zlikni anglash g‘oyalari ildizi bilan quritiga intilgan. Xalqlarning tili, dili va asriy an‘analariga tajovuz qilingan. Diniy qadriyatlar toptalgan. Pirovard natijada yagona sovet xalqini tashkil etishga harakat bo‘ldi. Xalqlarga nisbatan genotsid siyosati qo‘llanilgan. Fikrlash, so‘z va e‘tiqod erkinligi cheklangan. Sovet xalqini boshqa xalqlardan ajratib iskanjada ushlangan, zo‘rlilik orqali kamchiliklar yashirilgan.

1989 yil 15 avgustda “kolxozchilar, sovxoz ishchilari, fuqarolar, shaxsiy tomorqa xo‘jaliklari va individual uy-joy qurilishini yanada rivojlantirish to‘g‘risida” maxsus qaror qabul qilindi. Garchi, bu g‘oya Ittifoq rahbarlariga yoqmagan bo‘lsa ham, I.A. Karimov o‘z fikridan qaytmay, uni jasorat bilan amalga oshira bordi. Natijada o‘sha yilning 4 oyida aholi qo‘shimcha 90,7 ming gektar yer olishdi. O‘ta qisqa fursat ichida 1,5 milliondan ko‘proq oilaning tomorqa uchastkalari kengaytirildi, tomorqaga yetolmay yurgan 580 ming oila unga ega bo‘ldi. Tomorqa xo‘jaligi maydonining o‘sishi, unga bo‘lgan e‘tiborning kuchayishi, agrar siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanishi qishloq xo‘jaligining keskin o‘sishiga olib keldi.

• 1989 yil 21 oktyabrda O‘zbekiston SSR Oliy Kengashining 11-chaqiriq 11-sessiyasida «Davlat tili haqida»gi Qonun qabul qilindi;

• 1990 yil 24 martda bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston SSR Oliy Kengashining 12 chaqiriq 1-sessiyasi O‘zbekiston tarixida birinchi marta Prezidentlik lavozimini ta‘sis etish to‘g‘risida

qaror qabul qildi. Sessiya I.A.Karimovni O‘zbekiston sovet sotsialistik Respublikasi Prezidenti etib sayladi;

- 1990 yil 20 iyunda O‘zbekiston SSR Oliy Kengashining 12-chaqiriq 2-sessiyasida «O‘zbekistonning Mustaqillik Deklaratsiyasi» qabul qilindi;

- 1991 yil 17 martda «O‘zbekiston yangilanayotgan Ittifoq (Federatsiya) tarkibida mustaqil, teng huquqli Respublika bo‘lib qolishiga rozimisiz?» degan savol qo‘yilgan umumxalq referendumini o‘tkazildi;

- 9,2 milliondan ortiq kishi yoki referendumda qatnashganlarning 94 foizi yoqlab O‘zbekistonning mustaqil teng huquqli Respublikasi sifatida yangilangan Ittifoq (Federatsiya) tarkibida bo‘lishini qo‘llab ovoz berdi;

Birinchi Prezident I. A. Karimov respublika aholisiga murojaat bilan chiqdi va O‘zbekistonning o‘z mustaqilligiga erishish yo‘li qat’iy ekanligini ta’kidladi. O‘zbekiston Birinchi Prezidentining Farmoni bilan Favqulodda holat davlat komitetining g‘ayri konstitutsiyaviy, huquqqa qarshi qarorlari va boshqa ko‘rsatmalari noqonuniy deb e‘lon qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I. Karimov Oliy Kengash sessiyasini chaqirish va unda O‘zbekiston Mustaqilligi haqida Qonun qabul qilishni talab qildi. Oliy Kengashining XII chaqiriq navbatdan tashqari sessiyasi 1991 yil 31 avgustda o‘z ishini boshladi. O‘zbekistonning mustaqil davlat deb e‘lon qilinishida mazkur sessiya katta tarixiy ahamiyatga ega bo‘ldi. Unda “O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to‘g‘risida” hamda “O‘zbekiston Respublikasining davlat bayrog‘i to‘g‘risida”gi masalalar kun tartibiga qo‘yilib, qizg‘in muhokama qilindi. Sessiyada O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to‘g‘risida Birinchi Prezident I.A. Karimov ma‘ruza qildi. U o‘z nutqida 1991 yil o‘rtalarida Markaziy Hukumat olib borayotgan ichki siyosatni tahlil qildi. • 19-21

avgust kunlari Moskva Favqulodda holat davlat komiteti a‘zolarining xalqlar ozodligi, jumhuriyatlar mustaqilligiga qarshi qaratilganligi xalqqa ro‘yi-rost bildirildi. Oliy Kengash deputatlari moddama-modda muhokamadan so‘ng O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to‘g‘risidagi qonunni qabul qildilar. So‘ngra Respublika Davlat mustaqilligi to‘g‘risidagi Bayonot qabul qilindi. O‘zbekiston SSR ning nomi O‘zbekiston Respublikasi deb o‘zgartirildi. Mustaqillik belgilangan kun 1 sentyabr 1991 yildan boshlab milliy bayram va dam olish kuni deb e‘lon qilindi. O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligi haqidagi bu hujjatlar o‘zbek xalqining asriy orzusi ro‘yobga chiqqanligining huquqiy ifodasi bo‘ldi.

“O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to‘g‘risida”gi qonun 17 moddadan iborat bo‘lib, mustaqil respublika uchun vaqtincha konstitutsiya rolini o‘ynaydigan bo‘ldi.

Ushbu qonunda O‘zbekiston mustaqil demokratik davlat deb e‘lon qilindi, ma‘muriy-hududiy tuzilishi, hokimiyat va boshqaruv idoralari tizimini mustaqil belgilash qonunlashtirildi. Respublikaning davlat bo‘linishi hamda iqtisodiy asoslari ham qonunda o‘z

aksini topdi. Shuningdek, ushbu hujjatda O'zbekistonning Qoraqalpog'iston bilan munosabatlari xususida so'z borib, O'zbekiston Qoraqalpog'istonning hududiy yaxlitligini tan olishi haqida fikr yuritiladi, u O'zbekiston tarkibida ekanligi e'tirof etiladi. Bunday qonunning qabul qilinishi o'sha davrda erishilgan yutuqlarning yuqori cho'qqisi bo'ldi. Shunday qilib, o'zbek xalqi asrlar davomida orzu qilgan mustaqillikka tinch yo'l bilan, O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A. Karimov boshchiligida respublika rahbariyatining oqilona yo'l tutishi orqali erishildi.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston mustaqilligi arafasidagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar murakkab va ko'p qirrali tarixiy bosqichni tashkil etadi. Mazkur davrda sobiq tuzumning inqirozi, iqtisodiy va boshqaruv tizimidagi muammolar, jamiyatda milliy o'zlikni anglashning kuchayishi hamda siyosiy faollikning ortishi mustaqillik g'oyasining shakllanishiga muhim zamin yaratdi. Davlat suvereniteti sari yo'naltirilgan siyosiy qarorlar va institutsional o'zgarishlar jamiyat taraqqiyotining yangi bosqichiga o'tishni tezlashtirdi. Ushbu jarayonlarni ilmiy jihatdan o'rganish mustaqil davlat qurilishining tarixiy ildizlarini chuqurroq anglash va ularning bugungi rivojlanishdagi ahamiyatini baholashda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A. Karimov «Istiqlol va ma'naviyat» T.,1994.
2. A. Karimov «O'zbekiston buyuk kelajak sari» T.,1998.
3. M.N. Muminova, M.A. Maksumova «Kasbiy etika va etiket», uslubiy qo'llanma, T.,2006.
4. N. E. Muhammadiyev «Kasb etikasi va estetik madaniyati»- Toshkent,1998 y.
5. Abdulla SHer «Axloqshunoslik» Ma'ruzalar matni, Toshkent, 2000